

UDK.: 636.5:619:615

## BROYLER TOVUQLAR QONINING AYRIM BIOKIMYOVIY KO'RSATKICHLARGA ANTISTRESS PREPARATLARLANING TA'SIRI.

**Chuliyeva.O.Z.** - magistr

**Islomov X.I.** - assistent

**Ibragimova.F.D.** - assistent

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada broyler tovuqlari qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga nozepan, minozepam va stress miks preparatlarning ta'sir doiralari berilgan.

**Summary:** The scientific article describes the effects of nozepan, minozepam and stress mix drugs on some biochemical parameters of the blood of broiler chickens.

**Kalit so'zlar:** Broiler, jo'ja, guruh, qon, zardob, oqsil, globulin, AlAT, AcAT, guruh

**Key words:** Broiler, chicken, group, blood, serum, protein, globulin, ALT, AcAT, group

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasida parrandachilikning tez yetiluvchan tarmoqlaridan biri bo'lgan broyler go'shti yo'nalishi bo'lib ulardan asosan parhez go'shti olinib, insonlar iste'moli uchun foydalaniladi. Broiler tovuqlarida yopiq siklda, to'shamalar ustida boqiladi.

Hamma vaqt tabiiy fiziologik holatlariga to'g'ri kelavermaydi chunki, tovuqxonada ko'p bosh sonlarining saqlanilishi, yaylovning yo'qligi, mikroikliming va oziqa tartibining o'zgarib turishi, yuqumli kasalliklarga qarshi emlov ishlar va hokazolar orqali stress omillar paydo bo'lib oqibatda parrandalar o'sib va rivojlanishining sekinlashishi natijasida ulardan olinadigan mahsulotlar salmog'i pasayibgina qolmasdan sifat ko'rsatkichlarini kamayadi. Yuqorida qayd qilingan kamchiliklarning oldini olishda tovuqchilik amaliyotida turli xil kimyoviy guruhlarga mas'ul bo'lgan antistress preparatlar ishlatiladi va oqibatda yosh broiler tovuqlarining bosh sonlari saqlab qolishga erishiladi hamda ulardan sifatli go'sht mahsuloti olinishiga erishiladi. Yuqoridagi muammolarni ijobiy hal qilish maqsadida tovuqchilik amaliyotida qo'llash uchun nozepam, mipozepam va stress miks antistress preparatlarning broiler tovuqlari qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'sir doiralari laboratoriya tajribalarida sinab ko'rishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

**Materiallarni tekshirish uslublari va maqsadlari.** Laboratoriya tajribalari uchun bir kunlik "ROSS zod" zotiga mansub 80 bosh jo'jalar broiler tovuqchiligidan olib kelinib uy sharoitida to'shamalar ustiga joylashtirilib har birida 20 boshdan qilib to'rtta guruh tuzildi jumladan: Birinchisi qiyosiy nazorat bo'lib ular xo'jalik ratsioni asosida preparatsiz oziqa bilan boqildi. Ikkinchisi tajriba guruhi bo'lib ularning nozepam 3,5 mg/kg oziqasiga qo'shib 30 kun davomida berildi.

Uchinchi tajriba guruhi jo'jalarga mipozepam 10 mg/kg oziqasiga qo'shib ularga am 30 kun davonida berildi va nihoyat to'rtinchi tajriba guruhi jo'jalariga stress mix antistress preparatidan 1 ml/ 2 litr ichimlik suvi orqali 5 kun davomida berilib 30 – kuni barcha guruhda jo'jalar so'yilib qon zardobi tajribadan umumiy oqsil albumin miqdorlari AlAT va AcAT fermentlar faolligi ST-180 asbobida tekshirish orqali aniqlandi. Tajriba davomida olingan raqamlarga Lnotinskiy S.I va boshq. (1990) usulida statistik ishlov berilib raqamlar orasida xatolik darajalari student jadvalidan aniqlandi.  $P < 0.05$

**Olingan natijalar.** 30 kunlik olib borilgan laboratoriya tekshiruvlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi tajriba guruhidagi jo'jalar nozepam 3,5 mg/kg, mipozepam 10 mg/kg oziqasi orqali 30 kun va to'rtinchi tajriba guruhidagi jo'jalar Stress mix antistress preparatini 1 ml/ 2 litr 5 kun olinganlarida qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori 6, 2, 4, 0 va 2,7g/l larni tashkil qilgan bo'lsa, albumin 3, 7, 5, va 5,3% ni, AlAT va AcAT fermentlarining faolligi qiyosiy nazorat guruhidagi jo'jalarning qon ko'rsatkichlariga nisbatan 5,5, 8,3 va 2,7 % larga 15,2, 14,0 va 6,2 % larga yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar jadvalda keltirilgan.

**Broyler tovuqlari qonining ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlarga antistress preparatlarining ta'siri.**

T/R	Tovuqlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi	Umumiy oqsil (g/l)	Albumin%	AlAT	AcAT
1	Qiyosiy nazorat	–	–	47,14±1,21	44,74±0,81	0,36±0,01	1,45±0,07
2	Tajriba	Nozepam	3,5 mg/kg oziqa bilan	50,10±1,25	46,12±0,55	0,38±0,05	1,67±0,10
3	Tajriba	Mipozepam	10 mg/ kg oziqa bilan	49,02±1,33	48,14±0,65	0,39±0,02	1,65±0,04
4	Tajriba	Stress mix	1 ml/2 l suv bilan 5 kun	48,5±1,13	47,10±0,95	0,37±0,07	1,54±0,07

**Xulosa.** Laboratoriya tekshiruvlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'llanilgan antistressorlik xususiyatiga ega bo'lgan preparatlar qon zardobi tajribadagi umumiy oqsil miqdorini oshirmasdan albumin qisman ko'paygan va AlAT hamda AcAT fermentlar faolligini oshirgan. Yuqoridagi antistress xususiyatga ega bo'lgan preparatlarni tovuqchilik amaliyotida qo'llash mumkin bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. ЭШИМОВ, Д., КУВВАТОВ, Х. А., ИСЛОМОВ, Х. И., РАХМОНОВ, Ф. Х., & ШОУМУРАДОВ, М. (2021). Сравнительная активность кокцидиостатиков при эймериозе кур. *Экономика и социум*, (5-2 (84)), 666-669.
2. Islomov, K. I., Eshimov, D., Rakhmonov, F. K., Kuvvatov, H. A., & Shomurodov, M. (2021). Study of the influence of medicinal preparations used in experimental eimeriosis of chickens on morphological indications of blood. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1480-1484.
3. Bayqulov, A. K., Islomov, X. I., & Rahmonov, F. X. (2023). Eksperimental giperkolesterolemiyada qondagi gomosistein mazmuni bilan endoteliy disfunktsiyasiga bog'liligiga izoh. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 455-461.

4. Rakhmonov, F., Eshimov, D., Islomov, K., Ubaydullaeva, G., & Hayitova, B. (2024). The effect of Chitosan and whey powder on the weight of broiler chickens. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01025). EDP Sciences.
5. Rahmonov, F. X., Eshimov, D., & Islamov, X. I. (2023). Effect Of Chitosan and Whey Powder on The Physiological Status of Broiler Chicks Fed. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 22, 70-73.
6. Egamberdiyev, K. E., Raxmonov, F. X., & Islomov, X. I. (2022). ENDEMIK IKTEROGEMOGLOBINURIYANING BIOKIMYOVIY MEKANIZMLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 338-342.
7. Holbayevich, R. F., Dasmurod, E., Iskanderovich, I. K., Bakhriddinobna, U. G., & Amirovna, H. B. (2024). EXPLANATION ON THE PHYSIOLOGICAL AND BIOCHEMICAL INDICATORS OF BROILER CHICKS FED WITH CHITOSAN AND WHEY POWDER. *Academia Repository*, 5(2), 184-187.
8. Davlatbaevna, I. F., Davlatbay, I., & Dasmurat, E. (2021). Effectiveness of Coccidiostatics Used in Chicken Coccidiosis and Effect on Morphological Indications of Blood. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(5), 151-154.
9. Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., Тошмуродов, Д., & Шомуродов, М. (2022). Влияния эймериостатиков на формирование иммунитета против болезни и на морфологические показатели крови кур. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 363-368.
10. Ibragimova, F. (2022). OQUVCHILARGA CHET TILINI ORGATISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(1), 691-698.
11. Safin, M., Ibragimov, D., & Ibragimova, F. (2024). Discussion of the biochemical mechanisms of copper deficiency in Karakul sheep bred in the Hungry Steppe and its prevention. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01048). EDP Sciences.
12. Safin, M., Ibragimov, D., & Ibragimova, F. (2024). Discussion of the biochemical mechanisms of copper deficiency in Karakul sheep bred in the Hungry Steppe and its prevention. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01048). EDP Sciences.
13. Ibragimova, F. D., Daminov, A. S., & Mamadullayev, G. X. (2024). FENSID SINERGITIK ARALASHMALI PREPARATNING TOVUQLAR EYMERIOZIGA QARSHI SAMARALI MIQDORINI VA FAOLLIGINI ANIQLASH. *Yangi O'zbekiston ustozlari*, 2(2), 46-50.
14. Алияров, Д., Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Тошмуродов, Д. (2021). Влияние иммуномодуляторов на физиологическое состояние организма птиц.
15. Тошмуродов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Алияров, С. (2021). Влияние транквилизаторов на морфологические показатели крови цыплят.